

- Grammatikani o'rgataymi yoki sher?
- Sher.
- Balki, ikkalasini hamdir?
- Ikkalasini ham.

Garchi tirnog'idan ayrilsa-da u,
Hech narsa o'zgarmas,
u yana arslon.

Arslonlar ichida ulg'aysa-da it,

Arslonga aylanib qolmas hech qachon.

- Kimki bu sherni yoddan bilsa, demak, u arslon, b" dedi otam.

- Bundan chiqdi, men arslon ekanmanda.

Dadam mast bo'lib kelganida qozi oshnasi unga nasihat o'qir, javobini esa shery tarzda qabul qilardi. Oshnasi esa "Nomalum xazinadan misol keltirardi. Shunday kunlar bo'lardiki, qozi bilimni to'ldirish uchun otamga ergashib, qovoqxonaga yo'l olardi.

- Chinakam arslon doimo mast yuradi, - derdi otam. - Azaldan shunday.

Ichib olsa, qizib turgan cho'g'ga aylanib, og'zidan o'tdek qarg'ish yog'diradi. Keyin mo'ylabi osilib, sochlari oqaradi. Vaqt o'tib, shamol cho'g'ni alangalatgandek sochlaridan siypalaydi

- Lekin bazida, - derdi onam, - o'zgacha kayfiyatda xushiga keladi.

Shunda validam otamning g'azabidan yashirinardi.

Bolaligimda meni jo'jabirday oilam davrasida ko'rgan kishi, bu bola yozuvchi yoki hech bo'lmaganda, adabiyot shaydosi bo'lardi, deb o'ylashi turgan gap edi. Agar meni qaysi tilda yozishimni so'rashsa, u kishi: "Albatta, ota-onasi, bobokalonlari singari arab tilida, - degan bo'lardi. Balki u haqdir: sheryatni, shubhasiz, ona tilimdagi manbalardan o'rganardim.

Otam Qur'on sharhlari yoki musulmon farzlari bilan shug'ullanayotib, shery yo'sinda so'zlar, onam ham shu uslubda javob

qaytarishga odatlanib qolgandi. Biroq onam teatr uchun tug'ilgan edi. Qanday tushuntirsam ekan?.. Uning bir o'zi butun boshli teatr edi. Otam sudga ketganida men yagona tinglovchi bo'lib qolardim. Sudning natijasiga qarab, otam shod yoki g'amgin

kayfiyatda qaytardi.

Onam buyuk aktrisa bo'lishi mumkin edi. Bir kuni menga vokzalni ko'rsatib berdi. Ikir-chikiridan tortib shovqin-suronlarigacha.

Parovozga o'xshab xushtak chaldi. Bu ayol - umrbod taqvodorlik yo'lini tutganidan sayohatni yoqiradigan, fidoiy inson edi

"Poyezd ortidan chopib, qichqirardim: "To'xta, meni ham olib ket!

Biz jazoir-tunis chegarasidan uncha uzoq bo'lmagan Sadratda kun kechirardik. Mening eng g'ala-g'ovur, yorqin xotiralarim ana shu davrga taalluqli. Osha paytlarda baxtiyor edim.

Madrasaning vaqtinchalik "mehmoni ekanman, hammasi yaxshi ketardi. Ko'plab tushunarsiz sherlarni yod olib, hurmat

taxtachasiga ilindim. Boshqa bilimlarni o'zlashtirmay, shu bilan kifoyalansam bo'lardi, o'rtamiyona, o'ziga to'q shoir yoki zim-ziyo hovuzdagi baliq kabi. Hayhot, meni umri akvarium yoki tovada tugaydigan o'sha mashhur gulmohining bo'ronli hayoti kutardi.

Ammo men ungacha ko'l bo'yidagi itbaliq ekanman, uning ham suvda, ham quruqlikda yashaydigan turining tungi ranglaridan faxrlanardim.

Menga toliblik yoqmasdi. Yetti yoshga to'lganimda, boshqa qishloqqa o'tganimizda (biz tez-tez sayohat qilardik, to'g'rrirog'i, ko'chib yurardik: musofir bo'lmaguncha musulmon bo'lmas ekan), otam paysalga solmay, meni "Bo'rilar komi, yani fransuz

maktabiga berishga qaror qildi. Oz xohishiga qarshi bo'lsa-da, buni izohladi:

- Arab tili bilan uzoqqa borolmaysan. Sen ham madrasa qurboni bo'lishingni istamayman. Bu tilni boshqa payt ham oying

ikkovimiz o'rgataveramiz. Hamma yoqda fransuz tili. Yoshligingda nimaiki uqtirgan bo'lsak, barini unutib, bu tilni o'zlashtirishing shart. Fransuzchani o'zingga singdirib, arabcha bilimlaringni bamaylixotir tiklay olasan.

Otam taxminan shunday degandi. Oshanda bunga o'zi ishonganmikan? Onam xo'rsindi. Yangicha fanlarni o'rganishga kirishib,

yolg'iz o'zim dars tayyorlab o'tirarkanman, validam tinchini yo'qotib, uy ichida izg'irdi. Alvido, dunyoda yagona teatr Dramaning tuguni yaqinlashib qolgandi.

Boshida qiyin bo'lsa-da, keyinchalik bu chet tilini yoqtirib qoldim, muallimimizdek bemalol gapiradigan bo'ldim.

Onamning dili "xiyonatimdan ranjigandi. Shu ko'yi meni kitobdan alahsitganlari esimda:

- Betob bo'lib qolmagin yana! - derdilar.

Bir kuni kechasi u muloyim, ammo mayus holda:

- Men seni yangi dunyoingdan chalg'itmasligim lozim. Menga ham fransuzchani o'rgat - dedilar.

Shunday qilib yangi zamonning tuzog'i zaif ildizlarimga bolta urishga ulgurdi. Osha kunlardagi axmoqona takabburliklarimni

eslasam, o'zimdan uyalib ketaman. Ona qo'lida fransuz jurnali bilan o'g'lining stoli ro'parasida sukut saqlab o'tirardi. Qahri qattiq maktab bolasi esa undan jim o'tirishni, nima desa shuni ortidan qaytarishni talab qiladi

Shunday keyin qalbmida farzand va ona o'rtasidagi begonalikni his qildim. Birato'la o'z ona tilimni ham, onamni ham boy berayotgan edim!

Oradan yigirma besh yil o'tdi. Qohiradaman. "Al-ahram ro'znomasining muharriri qo'limga jurnal tutqazdi: livanlik shoir

kitobimni o'z ona tilimga o'giribdi. Men esa bu tilda ismimni arang yoza olaman.

Ajdodlarimning tili menga nisbatan shafqatsiz bo'lib borayotgandi, go'yo. Ibn Arabiyning olamshumul sherlari kutilmaganda men uchun yangi mano, falsafa kashf etib borayotgandi:

O, qanday karomat!

Bu olov ichra bo'ston.

Har nega qodir turar,

Vujudimda urgan jon

Baxtsizlik ichidagi bu alamli va zaif yuksalish, alanga ichidagi bo'ston - darbadarlikda, fransuz tilida qog'oz qoralayotgan jazoir shoirining boshpanasi mana qayerda ekan - bo'rilar komida.

This is not registered version of TotalDocConverter